

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil *25-aprel* dagi
53 - sonli buyrug'iga
ilova

“Kalit ostida” yoki sotish uchun mo'ljallangan obyektlarda qurilish faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Tartib

“Kalit ostida” yoki sotish uchun mo'ljallangan obyektlarda qurilish faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Tartib” (keyingi o'rinlarda – Tartib), qurilish ishlari hajmini oylik davriylikda hisob-kitob qilishda “Kalit ostida” yoki sotish uchun mo'ljallangan obyektlar qurilishini oylik baholab borish uchun zarur ko'rsatkichlarni shakllantirishga asos bo'luvchi “Kalit ostida” yoki sotish uchun mo'ljallangan obyektlarda qurilish faoliyatining tanlanma kuzatuvini (keyingi o'rinlarda tanlanma kuzatuv) tashkil etish va o'tkazish mexanizmini belgilab beradi.

Mazkur Tartib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistika ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Tanlanma kuzatuv “Kalit ostida” yoki sotish uchun mo'ljallangan obyektlar qurilishida ishlar bajarayotgan tadbirkorlik subyektlarini qamrab oladi.

Tanlanma kuzatuvni o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturi asos bo'lib xizmat qiladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib GSBPMning yig'ish bosqichi doirasida tanlanmani shakllantirish, kuzatuvni tashkil etish, kuzatuvni amalga oshirish va kuzatuvni yakunlash, qayta ishlash bosqichi doirasida tasniflash va kodlashtirish, xatoliklarni tekshirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflar qo'llaniladi:

maqsadli jamlanma – kuzatuv o'tkazish maqsadida tanlab olingan respondentlar ro'yxati;

kuzatuv obyekti – “kalit ostida” qurilish ishlari olib borilayotgan va kuzatuv o‘tkazish uchun tanlab olingan obyekt.

3. Tanlanma kuzatuv yilda bir marotaba avgust oyida o‘tkaziladi va u quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, shaharlar va tumanlar hokimliklari tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar asosida “Kalit ostida” yoki sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar qurilishida ishlar bajarayotgan tadbirkorlik subyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

b) respondentlar tomonidan so‘rovnomanini to‘ldirilishi;

v) ma’lumotlarni olish va birlamchi tahlil qilish;

g) tanlanma kuzatuv natijalari bo‘yicha “Kalit ostida” yoki sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar qurilishining davomiyligi, ularning qurilish maydoni, qavatligi va devor turidan kelib chiqqan holda obyektning o‘rtacha qiymatini hisoblash;

d) “Kalit ostida” yoki sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar qurilishi bo‘yicha ishlar hajmini oylik davriylikda statistik baholab borish.

2-bob. Tanlanma kuzatuv instrumentariysi

4. Tanlanma kuzatuvni o‘tkazishda 1 qurilish “Kaliti bilan” yoki sotish uchun mo‘ljallangan obyektlarda qurilish faoliyati to‘g‘risida savolnoma”dan foydalaniladi (mazkur statistika kuzatuvining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika kuzatuvini asosida shakllantiriladi).

Savolnoma ikki bobdan iborat bo‘lib, 1- bobda hisobot davrida qurilish ishlari olib borilayotgan “kalit ostida” yoki sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar to‘g‘risida ma’lumot aks ettiriladi. 2- bobda obyektlarda bajarilayotgan qurilish-montaj ishlari to‘g‘risida ma’lumotlar (yangi qurilish) ko‘rsatiladi.

3-bob. Kuzatish obyektlari va tanlab olingan jamlanmani shakllantirish

5. Qurilish ishlarini olib borayotgan barcha turdagi korxona va tashkilotlar kuzatish obyektlari hisoblanadi.

6. Maqsadli jamlanma Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, shaharlar va tumanlar hokimliklari tomonidan taqdim etilgan “kalit ostida” yoki sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar qurilishida ishlar bajarayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati asosida shakllantiriladi.

7. Tanlanma miqdori maqsadli jamlanmaning 20-30 foizini tashkil etadi. Bunda subyektlar, qurilish obyektlarining har bir turi bo‘yicha har bir tuman va shahar kiritilgan holda tasodifiy ravishda tanlanadi.

4-bob. Kuzatuvlarni o‘tkazish bo‘yicha ishlarni tashkil etish

8. Kuzatuvlar maxsus savolnoma asosida, eStat 4.0 tizimi vositasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

9. Kuzatuvlarni o'tkazish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish, uning natijalarini tahlil qilish Statistika agentligining Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi hamda uning bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

10. Tayyorgarlik tadbirlarini so'zsiz amalga oshirilishi, belgilangan muddatlarda kuzatuvlarni o'tkazish monitoringi, hudud bo'yicha yakuniy jadvallarni shakllantirish, kuzatuvni sifatli o'tkazish uchun javobgar xodim Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalarining investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi boshlig'i (supervayzer) hisoblanadi.

11. Hududiy supervayzerlar, o'zlariga tegishli bo'lim xodimlari bilan birgalikda kuzatuv kunlarida:

intervyuyerlardan birlamchi elektron ma'lumotlarni qabul qiladilar;

savolnoma ma'lumotlarining to'liqligi va to'g'ri to'ldirilganligini nazorat qiladilar, savolnoma savollariga javoblarni mantiqiy nazoratdan o'tkazadilar;

tanlama kuzatuv jarayonida yuzaga keladigan muammoli savollarni oldini olish bo'yicha tezkor choralarni ko'radilar va zarur hollarda, respondentlarga kerakli tushuntirishlarni beradilar;

intervyuyerlar ishlarini umumiy muvofiqlashtirish va nazorat qilish hamda ular orasida ishlarni taqsimlashni amalga oshiradilar;

ro'yxatga asosan kuzatuv obyektlarini to'liq qamrab olinishini nazorat qiladilar.

12. Kuzatuvning tayyorgarlik tadbirlarini sifatli amalga oshirish, kuzatuv obyektlari egasi bo'lgan korxona aloqa vositalarini aniqlash, qurilish ishlarini amalga oshirayotgan korxona mas'ul xodimi bilan bog'langan holda, kuzatuv to'g'risida ma'lumot berish, tuman yoki shahar statistika bo'limlari xodimlari orasidan tayinlangan intervyuyerlar tomonidan amalga oshiriladi.

5-bob. Intervyuyerning majburiyatlari

13. Tanlanma kuzatuvni boshlashdan avval, intervyuyer mazkur Tartib va savolnomalar bilan tanishib chiqishi lozim.

14. Kuzatuv jarayonida intervyuyer quyidagilarga amal qilishi lozim:

a) respondentlarga hurmat bilan murojaat qilish, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lish va so'rov ixtiyoriy bo'lishini ta'minlash, respondentlardan olingan ma'lumotlarni sir saqlanishini ta'minlanishini tushuntirish;

b) respondentlarga kuzatuvning maqsad va vazifalarini aniq bayon qilish, maxsus savolnomaga asosan xolisona va beg'araz kuzatuv o'tkazilishini ta'minlash;

6-bob. Savolnomani to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar

15. Intervyuyer kuzatuv obyekti egasi bo'lgan korxona bilan telefon orqali bog'lanadi, obyekt egasi yoki obyekt to'g'risida to'liq ma'lumotga ega shaxsni aniqlaydi va unga mazkur kuzatuvning maqsadlari, vazifalari va ushbu obyekt tanlama kuzatuv rejasiga tushganligi haqida axborot beradi.

16. Respondentning kuzatuvda ishtirok etishga roziligini olgandan so'ng, savolnomani to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar beradi.

17. So'rovnomaning "D" va "E" ustunlari obyektga xosligidan kelib chiqib 1 raqami qo'yiladi, aks holda umuman to'ldirilmaydi.

18. Obyektda qurilish ishlarining boshlanish sanasi va kutilayotgan foydalanishga topshirish sanasi raqamlar ko'rinishida qo'yiladi.

19. Savolnomaning 2- bobi har bir obyektning qavatligidan kelib chiqqan holda, alohida satrlarda to'ldiriladi.

20. Obyektning qurilish maydoni (kvadrat metri) obyektning rejasi asosida qo'yiladi.

7-bob. Kuzatuv natijalarini tayyorlash va umumlashtirish

21. Hududiy statistika boshqarmalarning Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limlari quyidagilarni amalga oshiradilar:

elektron axborotlarni birlamchi nazorat qilish, umumlashtirish va tahlil qilish;
umumlashtirilgan elektron axborotlarni Statistika agentligiga taqdim etish.

22. Statistika agentligining Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi va uning bo'limlari quyidagilarni ta'minlaydilar:

tanlama kuzatuvlar bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar monitoringi;
tanlama kuzatuvlar natijalari tahlili;
kuzatuvlar natijalari bo'yicha tahliliy jadvallar tayyorlash.

7- bob. Yakuniy qoidalar

23. Mazkur Tartib ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

“Kalit ostida” yoki sotish uchun mo‘ljallangan
obyektlarda qurilish faoliyati tanlanma kuzatuvini
tashkil etish va o‘tkazish Tartibi”ga

1 - ILOVA

“Kalit ostida” yoki sotish uchun mo‘ljallangan obyektlarda qurilish faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish

MEXANIZMI

	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Mas’ullar	Muddati
I bosqich	Kuzatish obyektlari va tanlab olingan jamlanmani shakllantirish	1. Hududiy hokimliklar ma’lumotlari asosida “kalit ostida” va sotish uchun mo‘ljallangan obyektlar bo‘yicha ma’lumotlarni shakllantirish; 2. Olingan ma’lumotlar ro‘yxatidan kuzatish uchun 20-30 % obyektlarni tanlab olish.	Statistika agentligi va hududiy statistika boshqarmalari	Avgust oyining birinchi yarmi
II bosqich	Kuzatuvlarni o‘tkazish bo‘yicha ishlarni tashkil etish	1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalaridan mas’ul supervayzerlarni belgilash; 2. Viloyat va tuman statistika bo‘limlari tomonidan kuzatuvni o‘tkazish uchun intervyuyerlarni belgilash;	Hududiy statistika boshqarmalari	Avgust oyining birinchi yarmi
III bosqich	Kuzatuvlarni o‘tkazish	1. Ro‘yxat bo‘yicha kuzatuvga tushgan obyekt egasi yoki obyekt to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega shaxs bilan kuzatuv o‘tkazish; 2. Kuzatuv savolnomalarining to‘liqligi va sifati supervayzerlar tomonidan tekshirilishi hamda kuzatuv ma’lumotlari asosida maxsus elektron jadvallarni to‘ldirish; 3. To‘ldirilgan elektron jadvallarni Statistika agentligiga taqdim etish;	Statistika agentligi va hududiy statistika boshqarmalari	Sentabr oyining birinchi ish kuniga qadar
IV bosqich	Kuzatuv natijalarini tayyorlash va umumlashtirish	1. Hududiy statistika boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan jadvallarni tahlil qilish, sifati, qamrovi ta’minlanganligini tekshirish; 2. Kuzatuv natijalari bo‘yicha tahliliy jadvallarni tayyorlash.	Statistika agentligi	Sentabr oyi yakuniga qadar